






Jarqo'rg'onda ijtimoiy soha obyektlarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi



Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, obyektlar faoliyati bilan tanishish maqsadida Jarqo'rg'on tumaniga tashrif buyurdi. Dastlab Qorayontoq mahallasida joylashgan oilaviy shifokorlik punktining faoliyati bilan tanishildi. Xususan, hudud aholisining sog'ligini muhofaza qilish va patronaj xizmatini sifatli ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi.







Shuningdek, ushbu mahallada joylashgan 66-sonli maktabda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida birlashtirilgan oilalar farzandlari uchun tashkil etilgan to'garaklar faoliyati bilan tanishildi. Ushbu to'garaklar bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning intellektual va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shishga mo'ljallangan bo'lib, turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.



Shundan so'ng, "Ulug'bek" mahallasidagi 2-sonli maktabda stol tennisi va shaxmat markazlarining faoliyati ham ko'zdan kechirildi. Bu markazlar bolalar va yoshlarga sport va intellektual o'yinlarni o'rgatish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida tashkil etilgan. Viloyat rahbari o'tgan hafta tumanga tashrifida mahalla Yoshlar yetakchilariga ushbu markazlarni tashkil etish uchun stol tennisi va shaxmat jihozlarini topshirgan edi.

Keyingi manzil Minor mahallasidagi 268-sonli oilaviy bog'cha bo'ldi. Bu yerda kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan oilalar farzandlarini qamrab olish, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Bog'chaning qulay sharoitlari, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi bolalarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.



Tumanga tashrif yakunida Minor mahalla fuqarolar yig'ini uchun yangidan qurilgan binoning foydalanishga topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Shuningdek, ushbu mahallada "Ma'naviyat sektori"ni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan ham tanishildi. Xususan, urf-odatlarimiz va an'nalarimizni o'zida aks ettirgan ko'rgazmalar, milliy hunarmandchilik markazi hamda folklor jamoalarning chiqishlari namoyish etildi.

